

Xitoy va g'arb davlatlari o'rtasidagi dastlabki munosabatlar tarixidan

R.Qobilova

ToshDSHI "Xalqaro mamlakatlar tarixi" yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xitoy va G'arb mamlakatlar o'rtasidagi aloqalarning tarixi o'rganiladi. Maqolada Xitoyning g'arb mamlakatlari bilani aloqalari tarixi bosqichma-bosqich tahlil qilinib tegishli xulosalar beriladi.*

Xitoy qadimdan yirik savdo-sotiq markazi, ko'plab mahsulotlar ishlab chiqaradigan va yetkazib beradigan mamlakat sifatida ma'lum. Buyuk Ipak Yo'lini yo'lga qo'yilishi Xitoyning mamlakatlararo obro'sini yanada oshirib yuborib, bu hududga bo'lgan qiziqishni yanada ortishiga sabab bo'ldi. Buyuk geografik kashfiyotlar g'arb davlatlari uchun Sharq davlatlariga kirib borish eshiklarini ochib berdi. Shu sababdan g'arb davlatlari o'rtasida yangi hududlarni o'zlashtirish, yangi mahsulotlarga va uni sotadigan bozorga ega bo'lish maqsadida kurash boshlanib ketdi, Xitoy ham bu jarayondan chetda qolmadi.

Xitoy hududiga dastlabki kirib kelgan va aloqa o'rnatgan g'arb davlati sifatida portugallar tilga olinadi. 1516 yilda Portugal kemalari Xitoy qirg'oqlariga yetib kelishgan va xattoki quruqlikka kirishga ham erishishgan, ammo Xitoy kemalari bilan to'qnashuvdan keyin, ular bu yerdan haydab solingan. 1531 yilda xitoy va portugallar kemalari o'rtasida jang bo'lib o'tdi va jangda portugallar mag'lub bo'lishdi. Shu voqe'adan so'ng Xitoy bandargohlarini chet ellik kemalar uchun yopib qo'ydi. Shunga qaramay portugallar XVI asrda janubiy xitoy hududidagi orolga kelib joylashishgan va 1537 yilda xitoy hukumatidan bu yerda mahsulot uchun ombor qurish huquqini qo'lga kiritishgan edi. Savdogarlar bilan birga kelgan katolik missionerlariga esa Xitoy hududida dinni targ'ib etish huquqi berildi. Shunday qilib portugallarning Makao ustidan uzoq davom etgan hukmronligi boshlandi.¹

¹ Пан Т. А. Маньчжурские письменные памятники по истории и культуре империи Цин XVII-XVIII вв. СПб., 2006.-228 с. [ISBN 5-85803-309-1](#)

XVII asrning birinchi choragida Xitoyga g'arb davlatlari ekspansiyasi² davom ettirildi. Ispaniya Filippin orollarini egallagach, Xitoyning Luson oroliga hujum qilishdi va bu hududda savdo bilan shug'ullanuvchi 20 ming xitoyliklarni qirib tashlashdi. Bunday voqe'a 1639 yilda yana bir bor takrorlandi.

XVII asr boshlaridan Gollandiya Ost-Indiya kompaniyasi Xitoy bilan diplomatik va savdo munosabatlari o'rnatish uchun bir qancha urinishlarni amalga oshirdi. XVII asrning birinchi yarmida gollandlar Tayvanda o'rtnashib olishdi, lekin bu uzoqqa cho'zilmadi, XVII asrning 60 – yillarida gollandlar Chjen Chengun tomonidan Tayvandan haydab solishdi, natijada ular Xitoyga savdo va harbiy jihatdan kirib borish imkoniyatidan mahrum bo'ldi.

Inglizlarning Xitoy bilan o'rnatilgan dastlabki munosabatlari XVII asr oxirlariga to'g'ri kelib, ular Guanchjouda o'zlarining dastlabki korxonalarini tashkil etishadi va bu keyinchalik ingliz mahsulotlarini tarqatish uchun asosiy hamda muhim hududga aylantiriladi. XVIII asrda inglizlar Xitoydan gollandlarni siqib chiqarishga muvaffaq bo'ldilar. 1757 yilda Sin imperiyasi Xitoyni chet el bosqinchilaridan saqlash uchun butun Xitoy hududida chet el savdogarlari faoliyatini cheklab qo'ydi, faqatgina Guanchjou hududi bundan mustasno qoldi.

Xitoydan yevropaliklar birinchi navbatda ipak va chinni olib ketishni hamda tabak va o'q otar qurollar olib kirishni boshlashdi. Xitoy hukumati hali ham mamlakat hududiga ajnabiylar kirishini ta'qiqlagan edilar. Istisno tariqasida faqatgina portugal, nemis va italyan katolik missionerlariga ruxsat berilgan edi. Ularning tarixda tutgan o'rni haqida ikkiyoqlama qarash mavjud. Bir tarafdin, ular Xitoyni kelajakdagi bosqinchilik uchun tayyorlashsa; ikkinchi tarafdin, ular mahalliy xalqni g'arb sivilizatsiyasi va uning yutuqlari bilan tanishtirardilar.³

XVII asr boshlarida Xitoy va Rossiya o'rtasida ilk rasmiy munosabatlar kuzatiladi. 1618 yilda birinchi rus elchilari Pekinga yetib borishdi, ular ortga qaytishda Xitoy imperatorining ikki tomonlama diplomatik va savdo aloqalari o'rnatish to'g'risidagi nomasini olib kelishgan. Ammo Xitoyda sodir bolgan

² Bosqinchilik siyosati

³ *История стран зарубежной Азии в средние века. М., 1970. Китай в XVI—XVIII веках.*

qo'zg'alonlar hamda hukmron sulolaning almashinishi natijasida aloqalar o'rnatish ancha kechikib ketdi. XVIII asrning 70 – yillarida Rossiya yana Xitoy bilan aloqalar o'rnatishga urinib ko'rdi. Ammo, Uzoq Sharq va Markaziy Osiyo masalasidagi kelishmovchiliklar bunga to'sqinlik qildi. Son'gra bu davlatlar o'rtasida urush boshlanib ketdi, Sin imperiyasi qo'shinlari Amur daryosi bo'yidagi Albazin shahrini egallashdi, natijada 1689 yilda rus-xitoy shartnomasi imzolandi. Bu shartnoma tarixga “Nerchinskiy”⁴ nomi bilan kirdi. Bu shartnomaga ko'ra Rossiya va Xitoy o'rtasida savdo aloqalari yo'lga qo'yildi, ammo Rossiya ma'lum yon bosishga majbur bo'ldi. Amur daryosi chap qir'goqlari Sin imperiyasiga, Alabazin shahri esa vayron etilishga kelishildi.

1727 -1728 yillarda yana ikkita shartnoma – Burin traktati va Kyaxtin kelishuvi imzolandi, Rossiya yana yon bosishga majbur bo'ldi.⁵ Ammo Rossiya buning natijasida rus-xitoy savdo aloqalarini kengaytirishga hamda rus diniy missiyasi doimiy tarzda Pekinda bo'lishiga erishdi. Bu missiya a'zolari xitoyliklar tilini, urf -odatlarini o'rganish va diplomatik vazifalarni bajarish bilan shug'ullanar edilar. Boshqa g'arb davlatlari ham Xitoyda o'z missiyalarini tashkil e'tishga harakat qilishdi, ammo bu urinish muvaffaqiyatsizlik bilan yakunlandi. XVIII asr o'rtalarida ajnabiylar kirishini ta'qiqlovchi qonun buni deyarli imkonsiz harakatga aylantirdi.

XVIII asr oxirlariga kelib Xitoyda Britaniyaning harakatlari faollashib qoldi, xususan ularning Ost Indiya kompaniyasi. 1793 yilda Xitoyga lord Makartni boshchilik qilgan elchilar tashrif buyurdi. Ularning maqsadi ikkala davlat o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatish, ingliz savdosi ta'sir doirasini kengaytirish, hamda Xitoy hududida inglizlarning erkin yurishi va faoliyatiga ruxsat olish edi. Lekin, imperator Szyanlun bu talablarni rad etdi, hamda Georgga yo'llagan maktubi oxirida “Qo'rquvdan titragan holda itoat qiling”, - deb yozib qo'ydi.

⁴ Основная статья: [Российско-китайские отношения](http://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%F0%E4%ED%E0%FF%D0%E5%E1%EB%E8%EA%E0)

<http://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%F0%E4%ED%E0%FF%D0%E5%E1%EB%E8%EA%E0>

⁵ Мясников В. С. Империя Цин и Русское государство в XVII в. — М.: Наука, 1980. — 312 с.

Inglizlardan tashqari Xitoy hududiga kirishga amerikaliklar ham urinib ko'rishgan. 1784 yildan boshlab ularning kemalari Xitoy qirg'oqlari bo'ylarida paydo bo'la boshlagan.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, o'sha paytlarda chet elliklarning Xitoy bilan aloqa o'rnatishga bo'lgan har bir urinishlari Xitoy imperatori tomonidan "varvar" larning Xitoy sivilizatsiyalashgan madaniyatini qabul qilishga urinishidek qabul qilinishini, hali tushunib yetmagan edilar. Bu esa Xitoyning boshqa davlatlar bilan teng mavqe'da munosabatlarga kirishishini inkor etardi. Elchilar tomonidan imperatorga sovg'a keltirilishi, hurmat ramzi tariqasida emas, balki vassallarning imperatorga keltirgan boji sifatida ko'rilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish kerakki, Xitoyning g'arb davlatlar bilan dastlabki munosabatlari juda iliq kayfiyatda bo'lib, endigina hokimyatga kelgan manchjur hukmdorlari ular yordamida hokimyatni mustahkamlashni niyat qilishgan edi. Ular ajnabiylar kemalarini bandarhohlarga kirib kelishga hamda xitoylik vatanparvarlar bilan kurashda manchjur bosqinchilariga yordam berishiga ruhsat berishgan. Ikkinchi Sin imperatori – Kansi davrida chet ellik missonerlar imperatorning tashqi munosabatdagi eng yaqin maslahatdoshi, artilleriya, astronomiya, matematika va boshqa sohalarda yordam ko'rsatishdi. Xitoy bu munosabatlardan ko'plab foydali narsalarni o'zlashtirgan.

Ammo manjurlar hokimyatini mustahkamlagach yevropaliklarga munosabatini o'zgartirdi. Chunki, ularning tub niyatlari Xitoyni ham mahsulot bazasiga aylantirish va bu hududni ekspansiya qilish ekanligini ular sezib qolishdi, shu sababli XVIII asr boshlarida hududlarni chet ellik savdogarlar uchun yopa boshladilar. Xitoyda ochilgan barcha xristianlik cherkovlari yopildi. Xitoyning "yopiq davlat" siyosati uning g'arb davlatlari ta'siridan bir qancha vaqt saqlab turdi, ammo bu saqlab qola olmadi. XVIII asr oxirlaridan Angliya bu hududga yashirincha tarzda Hindistondan "opium"⁶ olib kira boshladi, natijada XIX asrda uzoq davom etgan "opium janglari" bo'lib o'tgan.

⁶ Kuchli narkotik vosita

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. История стран зарубежной Азии в средние века. М., 1970. Китай в XVI—XVIII веках.
2. Пан Т. А. Маньчжурские письменные памятники по истории и культуре империи Цин XVII-XVIII вв. СПб., 2006.-228 с. ISBN 5-85803-309-1
3. Мясников В. С. Империя Цин и Русское государство в XVII в. — М.: Наука, 1980. — 312 с.
4. Основная статья: [Российско-китайские отношения](#)
http://ru.wikipedia.org/wiki/%CA%E8%F2%E0%E9%F1%EA%E0%FF_%CD%E0%F0%EE%E4%ED%E0%FF_%D0%E5%F1%EF%F3%E1%EB%E8%EA%E0